


**JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Raximova Sadoqat Sulaymonovna

*Buxoro shahar 30-umumiy o'rta ta'lim maktabning
jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi:*




Ma'lumki, har bir dars mavzusini o'rganishda o'ziga xos texnologiya, usul va vositalarni tanlashga to'g'ri keladi. O'qitish jarayonida yuqori natijaga erishish uchun dars jarayonini oldindan ketma-ketligini mo'ljallash kerak bo'ladi. Bundan o'qituvchi fanning o'ziga xos tomonlarini, o'quv jarayonini va sharoitini, o'quvchilarning ehtiyojini va imkoniyatlarini, bilim saviyasini, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiyalarni tanlashi lozim. Bugungi kunda jismoniy tarbiya bilan bog'liq bo'lmagan inson faoliyatining yagona sohasini toppish mumkin emas. «Ta'limdagi yangiliklar» va «Pedagogik yangiliklar» atamalari birgalikda ishlatilgan. Innovatsiyalar ilmiy tadqiqotlar, ilg'or pedagogic tajribani tahlil qilish va umumlashtirish natijasida paydo bo'ladi.

Innovatsion texnologiyalar to'g'risida tushuncha

An'anaviy ta'lim o'quvchilarni tayyor bilimlarini o'zlashtirishga o'rgatadi, unda o'qituvchi shaxsi asosiy o'rinni egallagan bo'lib, o'quvchi esa bu jarayonning passiv ishtirokchisi bo'lib kelgan. Ana shuning uchun hozirgi kunda interaktiv metodlar, innovatsion pedagogic va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga kiritishga qiziqish tobora kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishga, mustaqil o'rganish, tahlil qilish va olingan bilimlardan o'zlari xulosa chiqarishga o'rgatadi. Innovatsion texnologiyalar inglizchadan "innovaton" yangilik kiritish – pedagogik jarayon, ya'ni o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga o'zgarish, yangilik kiritish, o'quv jarayonida interaktiv metodlardan to'liq foydalanishni o'z ichiga oladi. Bundan hamkorlikning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o'quvchining bilim olishishtiyoqini muntazam oshirib borishi;
- o'quvchining har qanday muammoga ijodiy yondashuviga o'rgatish;
- pedagog va o'quvchi faoliyatining o'zaro hamkorligini ta'minlash;
- o'quvchining dars davomida befarq bo'lmasdan, ijodiy fikrlashi va izlanuvchan imkon yaratish.



Har bir darsga o'quvchilar qiziqishi mavzu mazmuni va maqsadidan kelib chiqqan holda o'ziga xos texnologiya qo'llaniladi. O'quv jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorligini quyidag sxema orqali ifodalash mumkin:

Darsning texnologik xaritasi oldindan loyihalshtirilgan bo'ladi. Darsning turli bosqichlarida har xil interfaol usullardan foydalansa bo'ladi. Jismoniy tarbiya darslarigda **“Klaster” metod usulidan**, **“Zig-zag” texnologiyasi metodidan** foydalanish samaralidir.